

ADABIY OBZORDA ILMIY-NAZARIY MUAMMOLAR TALQINI

Jamolova Zilola,

Buhoro davlat universiteti mustaqil-izlanuvchi

Annotatsiya. Jahon adabiyotshunosligida adabiy tanqidchilik janrlari alohida bir tizim sifatida adabiy jarayonda, adabiyot taraqqiyotida muhim o'rinni tutadi, jumladan, o'zbek adabiy tanqidchiligidagi ham. Bu tizimda taqriz, maqola, adabiy portret singari adabiy obzorlar ham muhim o'rinni egallaydi. Adabiy obzorlarda obyekt qilib olingan davr va unda yaratilgan asarlar tahlil qilinib, ma'lum xulosalar chiqariladi. Mazkur maqolada o'zbek adabiy tanqidining faol janrlaridan biri adabiy obzor janri va uning yirik tanqidchi M.Qo'shjonov ijodida tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga akademik M.Qo'shjonovning qayta qurish davrida yaratilgan romanlar va asosan, ulardagagi zaif jihatlar haqidagi mulohazalari ham tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: adabiy obzor, sharh, adabiy tanqid, janrlar, romanchilik, tahlil, xronologik obzor, xulosa, badiiy matn.

**ИНТЕРПРЕТАЦИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО ПРОБЛЕМЫ В
ЛИТЕРАТУРНОЙ ОБЗОРЕ**

Джамолова Зилола,

независимый исследователь Бухарского государственного университета.

Аннотация. Жанры литературной критики в мировой литературе как отдельная система занимают важное место в литературном процессе, в развитии литературы, в том числе и в узбекском литературоведении. Важное место в этой системе занимают литературные рецензии, статьи, литературные портреты. Анализируется период и созданные в него произведения и делаются определенные выводы. В данной статье одним из активных жанров узбекского литературоведения является жанр литературной обзор и его место в творчестве великого критика М. Кошдженова. Вместе с тем были проанализированы и комментарии академика М. Кошянова о романах, созданных в период реконструкции, и, главным образом, об их слабых сторонах.

Ключевые слова: литературный обзор, рецензия, литературная критика, жанры, роман, анализ, хронологический обзор, реферат, художественный текст.

**INTERPRETATION OF THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL PROBLEM IN THE
LITERATURE REVIEW**

Jamolova Zilola,

independent researcher at Bukhara State University.

Annotation. The genres of literary criticism in world literature as a separate system occupy an important place in the literary process, in the development of literature, including in Uzbek literary criticism. An important place in this system is occupied by literary reviews, articles, and literary portraits. The period and the works created in it are analyzed and certain conclusions are drawn. In this article, one of the active genres of Uzbek literary criticism is the literary review genre and its place in the work of the great critic M.Koshdzhhanov. At the same time, academician M. Koshyanov's comments about the novels created during the reconstruction period and, mainly, about their weaknesses were also analyzed.

Key words: literary review, review, literary criticism, genres, novel, analysis, chronological review, abstract, literary text.

Adabiy tanqid o'ziga xos ijod turi sifatida faqat aniq shakllarda o'zini namoyon etadi, adabiyotda har bir adabiy tur aniq janrda namoyon bo'lgani singari, ijod turi hisoblangan adabiy tanqid ham o'ziga xos janrlarda namoyon bo'ladi. Taqriz, adabiy obzor, adabiy portret, esse, maktub kabi o'zbek adabiy tanqidchiligining o'ndan ziyod janri mavjud bo'lib, ular orasida adabiy obzor muhim o'rinni egallaydi.

Adabiy obzorda o'rganilayotgan adabiy hodisaga umumiyligini qarashlar bayon etiladi, o'sha adabiy hodisaga daxldor adabiy dalillar izchil amaliy-estetik mantiq asosida umumlashtirilib, ma'lum xulosalarga kelinadi. Bunday umumlashtirish obzor shaklida kechgani bois maqola ham adabiy-tanqidiy obzor tusini oladi va shunday nom bilan e'tirof etiladi [1,78]. Obzor xarakteridagi adabiy-tanqidiy maqola adabiy tanqidchilikning ko'hna, faol janrlaridan sanaladi. V.G.Belinskiy yoqtirg'an

janrlardan biri-adabiy obzor edi. Rus adabiyotshunosligida janrlar muammosini birinchi bo‘lib o‘rgangan Grossman tanqidchilik janrlarining 20ga yaqin turlarini ko‘rsatar ekan, ularni uch xil tasnif qiladi: 1) tanqid usuli bo‘yicha (bunga esse, impression etyud, traktat, publitsistik tanqid, akademik taqriz, sharh maqola kiradi); 2) tanqidiy ishning ko‘rinishi yoki “adabiy turlar” bo‘yicha (bunga felyeton, hikoya, xat, dialog, parodiya, pamphlet kabilar kiradi); 3) obyektni qamrab olish kengligi va darajasi bo‘yicha (adabiy portret, obzor, taqriz, parallel, monografiya) [4, 14]. Haqiqatan ham adabiy obzor obyektni qamrab olish kengligi bo‘yicha keng imkoniyatlarga ega. Uning ilmiy-nazariy, xronologik, mavzuviy turlarida bu jihatlar yorqin ko‘rinadi.

Ilmiy-nazariy obzorlarda ilmiy tahlil, tadqiq etilayotgan asarlarga har tomonlama, san’at mezonlari doirasida baho berish, nazariy xulosalar chiqarish xususiyatlari ustuvor turadi. Adabiy obzorlarda obyekt qilib olingan davr va unda yaratilgan asarlar tahlil qilinib, ma’lum xulosalar chiqariladi. Uning bir turi bo‘lgan ilmiy-nazariy obzorlarda ilmiy tahlil, tadqiq etilayotgan asarlarga har tomonlama, san’at mezonlari doirasida baho berish, nazariy xulosalar chiqarish xususiyatlari ustuvor turadi [2,56]. Shu jihatdan qaraganda, akademik M.Qo’shjonov ijodida ilmiy-nazariy obzorlar yaratish ustuvorlik qilishi ko‘rinadi. Ammo tanqidchi ijodida xronologik va mavzuviy obzorlar ham uchraydi.

M.Qo’shjonovning «Qayta qurish va o‘zbek romanii» obzori adabiy muammolarga oid ilmiy-nazariy obzorning ko‘rkam namunasi bo‘lib, unda xronologik obzor ham, janrlar obzori ham qorishiq holda keladi. Obzorda tanqidchining qiyofasi, bilimi, zukkoligi aniq ko‘rinib turadi. Eng muhim shundaki, munaqqid maqolada turg‘unlik yillardagi adabiyot va tanqidchilikning ofarinbozlik kabi nuqsonini ochiq ko‘rsatib beradi. M.Qo’shjonov adabiy obzorida romanchilik taraqqiyotini teran kuzatish, umumlashmalar chiqarish, adabiyot rivojiga xalal berayotgan nuqsonlarni ko‘rsatib berish kabi xususiyatlar yorqin ko‘rinib turadi.

Munaqqidning obzorida romanchilik taraqqiyotini teran kuzatish, umumlashmalar chiqarish, adabiyot rivojiga xalal berayotgan nuqsonlarni ko‘rsatib berish kabi xususiyatlar yorqin ko‘rinib turadi. Olim, eng avvalo, turg‘unlik davriga to‘g’ri baho berishga intiladi: «Turg‘unlik davrining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga keltirgan zarari shaxsga sig‘inish oqibatlarining ziyonidan kam bo‘lmadi. Aslida, turg‘unlik davrida sotsializm prinsiplari buzildi; bu zo‘ravonlik oshna-og‘aynigarchilik, ma’lum bir tabaqa yoki mansabdagi kishilarning bir-birlarini quvvatlashi, qarindosh-urug‘chilik, mahalliychilik, poraxo‘rlik va v.h. yo‘llar bilan amalga oshirildi»[1,98]. Bu hol adabiyotda, xususan, o‘zbek romanchiligi taraqqiyotida ham ko‘zga tashlanganligini o‘rtamiyonachilik, badiiyat talablaridan chekinish, kitobxonga ozuqa bermaydigan asarlar “sarjini”ni qalashtirib tashlash, shuhratparastlik istaklarini qondirish singari ko‘rinishlarda namoyon bo‘lganini olim birma-bir ochib beradi. U katta nasrda bu yo‘nalishning 50-yillarda I.Rahimning “Hayot buloqlari” deb atalgan romanidan boshlanganini afsus bilan qayd etadi.” Tez fursatda kotiblar, direktorlar, raislar, muharrirlar “adabiyoti” paydo bo‘ldi. O‘rtamiyonachilik yuqumli kasallik singari iste’dodli yozuvchilarni ham o‘z domiga tortdi. Shu tariqa H.G’ulom, Mirmuhsin, S. Karomatov, M.Qorievlar qator asarlar e’lon qilishdi. O‘rtamiyonachilikning adabiyotimiz uchun zarari ko‘proq katta hajmdagi asarlar, xususan, romanни “bolalatish”da ko‘proq ko‘zga tashlandi”.

Munaqqid adabiyot va san’at taraqqiyotini kuzatib borishi kerak bo‘lgan adabiy tanqidchilikning ahvoliga ham nazar tashlar ekan, keskin fikrlar aytishdan o‘zini tiya olmaydi: “Ha, ba’zi o‘rinlarda munaqqidchilik o‘z so‘zini ayta oldi, bo‘layotgan hodisalarga ob‘ektiv baho bera oldi. Biroq bu ish doim ham yuqori darajada bo‘la bermadi. O‘rtamiyonachilik yuqumli kasallik singari iste’dodli yozuvchilarni ham o‘z domiga tortdi. Sayoz, badiiy jihatdan bo‘sh asarlar eng ko‘p maqtaladigan bo‘ldi. Adabiyotdagи “ofarinbozlik” shu alfozda ildiz otabordi”.

M.Qo’shjonov o‘rtamiyonachilikning nazariy asoslarini topishga harakat qiladi va bulardan biri mavzuga alohida ahamiyat berish deb hisoblaydi. O‘rtamiyonona asarlar maqtalganda, odatda 1) mavzuning aktualligi, materialning yangiligi bayroq qilib olinganligi tufayli yirik sotsial masalalarga, psixologik holatlar tasviriga asoslangan emas, balki biror qurilish obyektiga bag‘ishlab romanlar maydonga kela boshlaydi.

O‘rtamiyonachilikka olib kelgan boshqa bir “nazariy” masala 2) -qahramon tanlash edi. Nazarimizda, bu xildagi asarlarning asosiy kamchiligi shundaki, ular markazida inson taqdiri, kechinmalari, real hatti-harakatlari emas, ko‘proq muallifning mavhum tasavvuridagi shaxslar turardi. Bu xildagi romanlarda qo‘riq yer ochish, inshootlar qurilishiga tegishli ikir-chikirlar, ishlab chiqarish tafsilotlari birinchi planda turardi. M.Qo’shjonov shu tariqa o‘rtamiyonachilikning ildizlarini ochib berishga harakat qiladi. U «inshootlar adabiyoti»ga tegishli ikki belgini alohida ta’kidlaydi. Birinchidan, badiiy tasvir va tahlil o‘rnini yuzaki, sun’iy to‘qimalar bilan to‘lib-toshgan ishontirish quvvati kam tavsiflar egallab olgan edi. Ikkinchidan, bu xildagi “romanlar”da yozuvchilikka xos badiiy qudrat yetishmasdi. Adabiyotdagи o‘rtamiyonachilikning tub sabablarini ochib berishga har kimning ham

yuragi dov bermasdi. M.Qo'shjonov bu borada ham o'zining dadilligini, adabiyot uchun kurashuvchi faol ekanligini ko'rsatib berdi.

Munaqqid har sohada bo'lgani kabi bu o'rinda ham obyektiv fikr yuritishga harakat qiladi: ishlab chiqarishga bag'ishlangan asarlar ichida iste'dod bilan yaratilganlari ham yo'q emasligini ta'kidlab o'tadi. Bunday paytlarda o'zbek yozuvchilar mahalliy manfaat, geografik bo'lmalar tushunchasidan yuqori ko'tarilib, hayotiy masalalarni qo'ya bilishda A.Muxtarning "Tug'ilish", P.Qodirovning "Olmos kamar" romanlarida inson qismati, tabiiy muhitga tegishli muhim masalalar o'rtaga qo'yilganini ko'rsatib beradi. Adabiy obzorda o'rtamiyonachilik rivoj topgan davrda ham inson qismati, hayotda ko'zga tashlangan illatlar, odamlararo munosabatdagi notekisliklar haqida asarlar yaratilgani, bu vazifa ko'proq tarixiy material asosida amalga oshirilganligi ko'rsatiladi.

Demak, ushbu adabiy obzorning ahamiyati shundaki, munaqqid o'zbek romanchiligi taraqqiyotiga teran nazar solib, uning ma'naviy kamolot mevasi sifatida adabiyotimizning yetakchi janrlaridan biri bo'lib turganligi, shu bilan birga uning rivojiga to'siq bo'layotgan qator nuqsonlarni obyektivlik va xolislik bilan ochib bera olgan.

Xronologik obzor - bunda ma'lum yillar (davrlar)da yaratilgan badiiy asarlar o'sha davr kontekstida undagi ijtimoiy-estetik munosabatlar fonida adabiy jarayonga xos tamoyillarni umumlashtirishni nazarda tutadi. O'zbek tanqidchiligidagi XX asrning 60-90-yillardagi taraqqiyotida xronologik obzor yetakchilik qiladi[2,77]. "Yillik obzor turkum (tsikl) kabi o'zida muammoli maqola, monografik taqriz, paralell va satira elementlarini aks ettiradigan sintetik janrdir"[4,46].

Akademik M.Qo'shjonov ijodida xronologik obzor ham ko'p uchraydi. Masalan, "Katta hayot va ijod oqimi" obzorida o'zbek adabiyotining besh yillik davri (1970-75) obzor qilinadi. Olimning quyidagi fikrlari uning adabiy obzor janrida yozilganligini tasdiqlaydi: "Xalqimiz har bir tarixiy davrda faqat iqtisodiy va siyosiy yutuqlargagina emas, balki qo'lga kiritilgan ma'naviy boyliklarga ham yakun yasashni odat qilgan. Adabiyot va san'at esa, ma'naviy boylik orttirish markazida turadi.

Ittifoq miqyosida adabiyot va san'atimiz katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. O'zbek yozuvchilar ham bu besh yillikda mehnat vaxtasida turdilar va badiiy ijod bayrog'ini yanada balandroq ko'tarib, xalq xizmatida bo'ldilar"[6,14].

Adabiy obzorda dastlab tanqidchi yozuvchilarning adabiyotimizga yangi obrazlar sifatida kiritilgan, shu bilan birga dehqonlarning jonli obrazini yaratish yo'lidagi izlanishlariga diqqat qaratadi. Jangchi (Sh.Rashidov, N.Safarov, I.Rahim), konchi (Sh.Alyadin),quruvchi (S.Karomatov, Omon Matchon), ekskvatorchi, cho'pon (Sh.Xolmirzaev, ishchi (M.Qoriev), temir yo'l xizmatchisi (J.Abdullaxonov) obrazlari yaratilganligini ko'rsatib o'tadi.

Munaqqid adabiyotning boshqa turlarida yaratilgan asarlarga ham e'tibor qaratadi."Bir janr yozuvchisi ilg'ay olmagan haqiqatni ikkinchi bir janr ijodkori ilg'ab oldi, bir janrda aks ettirilishi qiyin bo'lgan hayot materiali ikkinchi bir janrda o'z aksini topadi. Hayot haqiqatini ko'lamliroq va chuquroq anglashda katta avlodga mansub shoirlarimiz bilan bir qatorda keyingi avlod ovozi baralla yangrab turdi"[6,17]. Kitobxonlar dilini tug'yonga solib, ularni yangilik sari ilhomlantirib turgan A.Oripov she'rlari, "ba'zan sotsial-falsafiy, ba'zan lirik planda" yaratilgan E.Vohidov, H.Xudoyberdiyevalarning mayin va jozibali she'rlari kitobxonlar dilini quvontirayotganini haqli ravishda e'tirof etadi.

Bu davr adiblari o'tmish mavzusiga ham murojaat qilib, uni bugungi kun xizmatiga qo'ya olayotganlarini O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", Uyg'unning "Abu Rayhon Beruniy", Omon Matchonning "Beruniy" asarlari misolida ko'rsatib beradi. Yozuvchi va shoirlarimizning bugungi kun hayot materiallariga murojaat qilib, odamlarning umuminsoniy vazifalarini ado etayotganliklari ulug'lash,uning asriy ildizlariga nazar tashlab, hayot haqiqatini bu gal bilvosita ulug'laganlarini ta'kidlab, "Mana o'zbek yozuvchilarining bu besh yillikda adabiyotimiz va san'atimiz taraqqiyotiga qo'shgan hissalarining qisqacha obzori" deb ko'rsatadi.Bu jarayonda yozuvchi mehnatinining mashaqqatlar evaziga yaratilishini dehqon, ishchi, olim mehnati bilan qiyoslab, ma'lum xulosalar chiqaradi.

Adabiy obzorda qaysi bir davr adabiyoti o'rganilar ekan, erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda adabiyot rivojiga to'siq bo'layotgan nuqsonlar ham ko'rsatiladi. M.Qo'shjonov ham davr adabiyotidagi nuqsonlarni 6-qismga bo'lib ko'rsatadi. Bu nuqsonlar tufayli adabiyotning "hali ham hayot taraqqiyotidan orqada qolayotganligi, o'z oldida turgan vazifalarni yetarli darajada ado eta olmayotganligi" munaqqidni tashvishga soladi. Ammo shuni ham qayd etib o'tish lozimki, bu kamchiliklar qaysi shoir yoki adibning qaysi asarida uchrashi aniq ko'rsatilmaydi, tanqidchi umumiyl fikrlar bilan cheklanadi.

Xronologik obzorda M.Qo'shjonov adabiy tanqidchilik rivoji, unda qator sifat o'zgarishlari ro'y berayotganligiga ham to'xtaladi. Davr tanqidchiligining oldingi davrlarda ko'proq adabiyot orqasida "sudralib" yurishdan "adabiyot fronti"ning oldingi saflaridan o'rin olayotganligi olim e'tiborini

tortadi. Bu o'rinda u qiyoslash usulidan foydalanadi: ilgari adabiy tanqidchilik estetik jihatdan yetarli savodli bo'limganli tufayli ko'p masalalarni to'g'ri hal qila olmasligi, hozir esa tanqidchilarning estetik jihatdan o'sganlari, ularning hayot materialini tasvirlash yo'llari- "adabiy prinsiplar va badiiy priyomlarni bir nuqtaga olib, tahlil qilishga" o'tganliklarini ko'rsatadi.

Zukko munaqqid ochiq-oydin aytmasa-da, XX asr boshlarida badiiy asarga bo'lgan subyektiv munosabat, kitobxon bilan adabiy-tanqidchi orasidagi uzilish bo'lganligiga ham o'z fikrini bildiradi: "Kitobxonga yoqib tushgan, unga har tomonlama ozuqa beradigan asarlar tanqidchilik tomonidan keskin qoralaran, ba'zan esa butunlay yo'qqa chiqarib yuborilar edi. Bu ishda har xil priyomlar ham ishlatalardi – do'qlar, qo'rqtishlar, tuhmatlar". Tanqidchi qaysi davrni va kimlarning asarlarini ko'zda tutayotganligini bugun anglab yetish qiyin emas.

M.Qo'shjonov adabiy tanqidning qo'lga kiritgan yutuqlari ko'p bo'lganligiga qaramay, kamchiliklar haqida ham o'z mulohazalarini bildiradiki, bu adabiy obzorning talablaridan bira hisoblanadi. Belinskiyning "badiiy asarni baholaganda shoshilmasdan ish ko'rish kerak" degan fikrlariga ko'pincha e'tibor qaratmaslik, shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilishi, ba'zan bitta asar haqida bir-biriga zid ikki fikr paydo bo'lishi, birida asar asossiz ko'klarga ko'tarilishi, ikkinchisida dalilsiz kamsitilishini tanqid qiladi. Bunga misol tariqasida yozuvchi M.Qoriyevenning "Afrosiyob go'zali" qissasi yuzasidan bildirilgan V.Zohidov hamda U.Normatovlarning bir-birlariga zid fikrlarini keltiradi, ularga munosabat bildiradi.

"Ba'zi o'rnlarda adabiy tanqidchilimiz zamonaviy temada yozilgan badiiy asarlarni diqqat markazida tutmaydi, ularning tahlilida zamondoshlarimiz xarakterini aks ettiradigan obrazlarni keng planda tadqiqot qilishga kam o'rin beradi. Ayrim paytlarda adabiyotimiz tarixidagi ba'zi bir masalalar yuzasidan "munozarali" gap aytganday bo'lib, "arzon" nom chiqarmoqchi bo'ladilar. Ma'lumki, Abdulla Qodiriy ijodining o'zbek adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rni haqida tanqidchilik va adabiytoshunosligimizda to'g'ri va obyektiv fikrlar aytildi" [6,22]. Shu jarayonda tanqidchi E.Karimovning "Realizm va insonni tasvirlash san'ati" maqolasida Otabek obrazining noto'g'ri talqiniga tanqidiy munosabat bildiradi. Otabekning prototipi sifatida Ahmad Donishning ko'rsatilishiga qarshi chiqadi.

Sharhanayotgan davrda tanqidchi adabiyot ilmining yangi sifatlar bilan boyiganligiga ham to'xtaladi. Shu bilan birga tanqidchini adabiyot ilmining hali hayot talabidan orqada qolayotganligi, butun bir davr muammolarini qamrab oladigan, adabiy ijod qonuniyatlarini chuqurroq o'rganadigan yuqori savidagi ishlarning kamligi, adabiyotning muhim masalalari yuzasidan babs va fikr olishuvlarning yetarli emasligi qoniqtirmaydi.

"Belinskiy tanqidiy tafakkurining tiniqligi uning oxirgi yillarda yozilgan obzorlaridagi mantiqiy izchil tahlillar, maqolalarning aniq va tekis qurilishi va qismlarining garmonik uyg'unligida aks etib turadi" [4,120]. Shu jihatdan qaraganda "M.Qo'shjonovning adabiy obzorlarida mantiqiy izchillik, haqiqatni ochiq-oydin ko'rsatish, umumlashtirish kabi fazilatlar ustun. Ularda munaqqidning uslubidan kelib chiqib, ba'zi asarlardagi yutuqlardan ko'ra, kamchiliklarini ko'rsatish ustuvorlik qiladi. Tanqidchi obzor maqolalarining ahamiyati shundaki, munaqqid o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga teran nazar solib, uning ayrim namunalari masalan, roman ma'naviy kamolot mevasi sifatida adabiyotimizning yetakchi janrlaridan biri bo'lib turganligini ochib bera olgan" [2,79].

Munaqqid adabiyot va adabiyotshunoslik rivoji uchun muhim masalalarni belgilab beradi, son jihatdan ishlar ko'pligi, sifat masalasiga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. Obzorda sho'ro davri masifikasi bilan bog'liq qarashlar, bugungi kunda eskirgan mulohazalar ham o'rin olganligini qayd etib o'tish lozim bo'ladi. Shunga qaramay, mazkur adabiy obzorning ahamiyati quyidagilarda ko'rindi: birinchidan, XX asrning 70-yillari boshidan 75-yilgacha bo'lgan davr va unda yaratilgan asarlarga baho berilgan, ikkinchidan, munaqqid yutuq va kamchiliklar haqida oshirmay-toshirmay, xolis fikr yuritgan, uchinchidan, bugungi kun o'quvchisiga shu davr adabiyoti, adabiy jarayoni haqida yorqin tasavvur uyg'ota oladi.

ADABIYOTLAR:

Адабий турлар ва жанрлар. З-жилдлик. 1-жилд. Тошкент. «Фан». 1993. 98-бет.

Ахмедова Ш. Узбек адабий танқиди жанрлари. Фил.ф.д...дисс. 2011. 79

З.Ахмедова Ш. Узбек адабий танқиди жанрлари. Тошкент."Фан", 2008. 56-бет

Егоров Б. О мастерстве литературной критики. Ленинградское отделение. Советский писатель. 1980,-с. 317.

Ёкубов Х. Танқид ва адабиётшуносликка бир назар. Китобда: Адабиётимизнинг ярим асри. 1-китоб. Т.:1967.

Қўшжонов М. Моҳият ва бадиият. Тошкент. F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.14-бет.